Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
Raimova Nasiba Abdreimovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
Turg'unov Mirjalol Mirzahamdami o'g'li	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
Bahronova Maftuna Farhadovna	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li	

OLIIY TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKNI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN CHET DAVLATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH USULLARI

Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektning oliy ta'lim tizimiga ta'siri, uning afzalliklari, mavjud muammolari va ehtimoliy natijalari ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotda oliy ta'lim jarayoniga sun'iy intellektni samarali joriy etish bo'yicha muhim tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda uning boshqaruvdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, AI, oliy ta'lim, pedagoglar, axloqiy mulohazalar, talabalar, oliy ta'lim muassasalari.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the benefits, challenges, and potential impacts of Artificial Intelligence on higher education. The study also presents practical recommendations for the effective integration of Artificial Intelligence technologies into educational processes and the management of higher education institutions.

Key words: artificial intelligence, AI, higher education, educators, ethical considerations, students, higher education institutions.

Аннотация: В статье научно рассмотрены преимущества, проблемы и потенциальные эффекты использования искусственного интеллекта в системе высшего образования. Также представлены рекомендации по эффективному внедрению технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс и управление высшими учебными заведениями.

Ключевые слова: искусственный интеллект, ИИ, высшее образование, педагоги, этические соображения, студенты, высшие учебные заведения.

KIRISH

Sun'iy intellektdan oliy ta'lim muassasalarida, neft va gaz sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash jarayonida foydalanish hamda uni boshqarish masalalari mazkur tadqiqotning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Ushbu maqolada sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari, xususan oliy ta'lim muassasalari va ularda neft va gaz sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga sun'iy intellektni joriy etishning zaruriy jihatlari ko'rib chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rivojlangan davlatlar tajribasi sun'iy intellektni oliy ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich, tizimli va me'yoriy boshqaruv asosida joriy etish samaradorligini ko'rsatadi. "Power of AI in Training and Development" hisobotida ta'lim jarayonida AI texnologiyalari o'qitish samaradorligini 35 foizgacha oshirishi mumkinligi, shuningdek, talabalarda mustaqil o'rganish kompetensiyalarini kuchaytirishi ta'kidlanadi. "New America" tashkiloti tomonidan o'tkazilgan "Varying Degrees" yillik so'rovnoma natijalariga ko'ra, AQSh universitetlarida talabalar sun'iy intellekt vositalarining o'qitish jarayonida qo'llanilishiga ijobiy munosabat bildirgan bo'lsalar-da, axloqiy masalalar, akademik halollik va shaffof boshqaruvning ahamiyati yuqori ekani qayd etilgan. Olivia Sawyer tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa, oliy ta'limda AI'dan foydalanish bo'yicha amerikaliklarning xavotirlari – ma'lumotlar xavfsizligi va inson o'rnini bosish ehtimoli bilan bog'liq ekani ko'rsatilgan.

Sun'iy intellektdan foydalanishning boshqaruv mexanizmlari dunyodagi yetakchi ilmiy markazlarda amaliy qo'llanmoqda. Stanford AI Lab, Carnegie Mellon University va Colorado School of Mines tomonidan ishlab chiqilgan generativ AI'dan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar talabalarga AI vositalaridan mas'uliyatli foydalanish, natijalarni tekshirish va akademik halollikni ta'minlashni talab qiladi. MIT Energy Initiative va Texas A&M universiteti tomonidan tayyorlangan ilmiy hisobotlarda AI texnologiyalarining ta'lim sifati, muhandislik jarayonlarini modellashtirish, murakkab tizimlar bo'yicha qaror qabul qilishda qo'llanilishi bo'lajak mutaxassislarning



kasbiy tayyorgarligini sezilarli oshirishi ilmiy asoslangan. Shuningdek, Tortoise Media tomonidan e'lon qilingan "Global AI Index" reytingi sun'iy intellektni rivojlantirish va uni boshqarishda AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy va Singapurning yetakchi o'rinlarni egallayotganini ko'rsatadi.

Rossiya va Osiyo davlatlari tajribasi ham oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarish bo'yicha muhim amaliyotlarni namoyish etadi. Yirik universitetlar – MGU, ITMO, Oliy iqtisodiyot maktabi, Gubkin nomidagi universitet va boshqalarda AI bo'yicha o'quv modullarining joriy etilishi, "raqamli egizaklar", mashinali o'qitish va ma'lumotlar tahlili asosidagi ta'lim yondashuvlari samarali boshqaruv tizimini shakllantirmoqda. Aleksey Shpilman, Kira Gordeyeva, Bekzod Zokirov va Nazokat Abduqunduzova tomonidan ta'kidlanganidek, sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga integratsiyasi iqtisodiyotning barcha yetakchi tarmoqlarida, xususan neft va gaz sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, akademik boshqaruvning aniq mexanizmlari, etik me'yorlar va malaka oshirish dasturlari AI texnologiyalaridan samarali foydalanishning asosiy omili sifatida qayd etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi mazkur mavzuda ilmiy tahlilning izchilligi va ishonchligini ta'minlash maqsadida bir nechta manba va yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshirildi. Asosiy ma'lumotlar rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha e'lon qilingan rasmiy hisobotlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan tahlillar, yetakchi universitetlarning AI bo'yicha ko'rsatmalari hamda ta'lim jarayoniga AI texnologiyalarini joriy etish amaliyotini yoritgan ilmiy manbalardan yig'ildi. Xususan, New America, Tortoise Media, Colorado School of Mines, Stanford AI Lab, MIT Energy Initiative va Texas A&M kabi nufuzli manbalar tomonidan taqdim etilgan ochiq ma'lumotlar kontent-tahlil usuli orqali chuqur o'rganildi. Qo'shimcha ravishda, Rossiya, AQSh va Osiyo davlatlarining oliy ta'lim muassasalarida AI texnologiyalarini boshqarish bo'yicha yondashuvlar haqidagi ilmiy maqolalar, reytinglar va statistik hisobotlar solishtirma tahlil doirasida tahlil qilindi.

Yig'ilgan ma'lumotlar tizimli ravishda kodlandi, asosiy mavzular, umumiy tamoyillar, boshqaruv mexanizmlari va milliy o'ziga xosliklar bo'yicha guruhlandi. Tahlil jarayonida kontent-tahlil, solishtirma yondashuv, tematik segmentatsiya va normativ-huquqiy sharh usullaridan foydalanildi. Shuningdek, sun'iy intellektni boshqarish bo'yicha davlat siyosati, universitetlar strategiyalari va o'quv dasturlaridagi real integratsiya jarayonlari o'zaro taqqoslanib, ilg'or tajribalarning samaradorlik omillari aniqlab chiqildi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida bir nechta mustaqil manbalardan olingan dalillar o'zaro verifikatsiya qilindi va faqat real, tekshirilgan, ochiq ma'lumotlar asosida yakuniy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu paragrafda oliy ta'lim tizimi hamda neft va gaz sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassisnlarni tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi haqida to'xtalib o'tamiz. Bunda xorijiy mamlakatlarni ikki guruhga ajratgan holda, ya'ni birinchi guruh – xorijiy rivojlangan davlatlar (AQSh misolida) va ikkinchi guruh – MDH mamlakatlari (Rossiya misolida) bo'yicha o'rganib chiqamiz.

AQSh tajribasi. AQShdagi Jorjiya universitetining rahbariyati professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar universitet kampusi hududida sun'iy intellektdan kengroq foydalanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqda. Bunday harakat sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlarga yo'naltirilayotgan katta hajmdagi investitsiyalar, kampus hududida Microsoft kompaniyasining sun'iy intellektga asoslangan generativ chatboti – Microsoft Copilot ga kirish imkoniyati, shuningdek professor-o'qituvchilarning talabalarni auditoriyada va undan tashqarida sun'iy intellektdan samarali foydalanishga o'rgatishlarini rag'batlantirish maqsadida "Sun'iy intellekt asosida o'qitishdagi innovatsiyalar" mukofoti (The Innovation in AI Teaching Award) ning ta'sis etilishi kabi tashabbuslarni o'z ichiga oladi.


Bu borada nafaqat Jorjiya universiteti, balki Qo'shma Shtatlardagi boshqa kollej va universitetlar ham o'z kampuslarida sun'iy intellektdan foydalanishni kengaytirishga jadal harakat qilishmoqda. Masalan, Michigan universiteti ma'lumotlarni boshqarish va insonlarning individual ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan talabalar hamda professor-o'qituvchilar uchun sun'iy intellekt vositalarining maxsus to'plamini ishlab chiqdi. Arizona davlat universiteti kabi ayrim oliy ta'lim muassasalari hatto o'z kampusini ChatGPT bilan bog'lash uchun sun'iy intellekt ishlab chiquvchi OpenAI kompaniyasi bilan hamkorlikni boshlagan.

AQShda tobora ko'proq oliy ta'lim muassasalari sun'iy intellektdan foydalanishni boshlaganliklari sababli, bu holat oliy ta'lim sifati va uning natijalariga qanday ta'sir qilishi mumkinligi haqidagi savollarni keltirib chiqarmoqda. Amerikaliklarning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga munosabatini yaxshiroq tushunish uchun New America tashkilotining jamoatchilik fikrini tahlil qiluvchi Varying Degrees nomli milliy so'rovnoma 2024-yilda birinchi marta oliy ta'limga sun'iy intellektni integratsiya qilishga qaratilgan savollarni o'z ichiga oldi.



Ushbu savollar amerikaliklarning oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish haqidagi tasavvurlari hamda sun'iy intellekt talabalar ta'lim jarayoni, ularni qo'llab-quvvatlash va oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomlarning qiymatiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yoritadi.

1-rasmda amerikaliklarning mazkur savollarga qanday javob berganliklari aks ettirilgan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hatto amerikaliklarning o'zlari ham sun'iy intellektning oliy ta'limga ta'siri borasida ko'proq noaniq yoki salbiy fikrni bildirganlar. Agar e'tibor bersangiz, talabaning o'qishiga qilinadigan investitsiya kela-jakda yaxshi daromad keltirishi fikrini so'rovda qatnashganlarning 72 foizi qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha bunday ko'rsatkich deyarli kuzatilmagan.



1-rasm: Amerikaliklarning oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha savollarga javoblari

Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, hatto sun'iy intellektdan foydalanish va uni boshqarish borasida jahondagi eng yetakchi mamlakat sifatida e'tirof etilayotgan AQShda ham oliy ta'lim va sun'iy intellekt o'rtasidagi munosabat bo'yicha to'liq shakllangan konsepsiya mavjud emas. Fikrimizcha, bu o'z navbatida sohaga oid ko'plab tadqiqotlarning amalga oshirilishini talab qilmoqda.

Endi AQShda neft va gaz sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarish tajribasi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Buning oldidan mamlakatda neft va gaz sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash tizimini qisqacha tavsiflab berishni afzal bildik. Bunday qisqacha tavsif 1.3.1-jadvalda o'z ifodasini topgan.

AQShda neft va gaz sohasi mutaxassislarni tayyorlashda yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Kolorado tog'-kon instituti (Colorado School of Mines)da "Generativ sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar" (Guidelines for Using Generative Artificial Intelligence) ishlab chiqilgan bo'lib, ular ushbu oliy ta'lim muassasasida sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarish uchun dasturilamal sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur ko'rsatmalarda keltirilganidek, institutda generativ sun'iy intellekt vositalari, jumladan ChatGPT kabi "katta til modellari" va Midjourney kabi "matndan tasvirga o'tkazish vositalari" ulardan akademik maqsadlarda foydalanish masalasida ko'plab muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Institut rahbariyati institut hamjamiyatini bunday muhokamalarda tanqidiy va ijodiy yondashuv asosida faol ishtirok etishga undaydi.

Ko'rsatmalarda ta'kidlanishicha, generativ sun'iy intellekt vositalari o'quv jarayoniga qo'shimcha hisoblanib, ular ta'lim natijalarini oshirish uchun bir qator innovatsion usullar yordamida qo'llanilishi mumkin. Profes-sor-o'qituvchilarga o'z darslarida generativ sun'iy intellekt vositalaridan puxta foydalanish tavsiya etiladi: agar



generativ sun'iy intellekt vositalaridan to'g'ri foydalanilsa, ular dars mashg'ulotlari, topshiriqlar va baholash tizimlarini ishlab chiqishni takomillashtirishi mumkin.

1-jadval: AQShda neft va gaz sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash tizimi

Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash dasturlari	Tavsif	Oliy ma'lumot darajalari
BAKALAVRLIK DASTURLARI		
Neft va gaz sohasi muhandisligi (Petroleum Engineering)	Ushbu dastur talabalarni neft va gaz sanoati muhandisligining nozik jihatlarini bo'yicha tayanch bilimlar bilan ta'minlaydi. O'qish davomida talabalar burg'ulash usullari, rezervuarlarni boshqarish va ishlab chiqarishni optimallashtirish bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'ladilar. Bitiruvchilar neft va gaz sanoati muhandislari sifatida muvaffaqiyatli karera qilish imkoniyatiga ega bo'lib, konlarni qidirish va qazib olish bo'yicha muhim loyihalarda ishtirok etadilar.	Neft va gaz sohasi muhandisligi bo'yicha Fan bakalavri (Bachelor of Science – BS in Petroleum Engineering)
Neft va gaz sohasi menejmenti (Energy Management)	Ushbu dastur energiya resurslarining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan neft va gaz sohasini boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Talabalar texnik jihatlar bilan birga siyosat, iqtisodiyot va barqarorlik masalalarini ham o'rganadilar. Bitiruvchilar energetika sohasi analitigi yoki menejeri sifatida faoliyat yuritishlari mumkin.	Neft va gaz sohasi menejmenti bo'yicha Biznes boshqaruvi bakalavri (Bachelor of Business Administration – BBA in Energy Management)
MAGISTRLIK DASTURLARI		
Neft va gaz sohasi muhandisligi (Petroleum Engineering)	Dastur neft va gaz sanoati muhandisligining murakkab yo'nalishlarida texnik bilim va amaliy tajribani chuqurlashtirishga qaratilgan. Unda rezervuar muhandisligi, burg'ulash muhandisligi kabi ixtisoslashuvlar mavjud. Bitiruvchilar qidiruv, qazib olish va rezervuar boshqaruvi bo'yicha murakkab masalalarni hal qila oladilar.	Neft va gaz sohasi muhandisligi bo'yicha Fan magistri (Master of Science – MS in Petroleum Engineering)
Neft va gaz sohasi menejmenti (Energy Management)	Ushbu dastur energetika tizimlari, jumladan neft va gaz sohasining o'rni haqida keng qamrovli tushuncha beradi. Energetika tizimi yoki neft-gaz sanoatini boshqarishga ixtisoslashgan ushbu dasturda biznes boshqaruvi va energetika bo'yicha bilimlar uyg'unlashtiriladi.	Neft va gaz sohasi menejmenti bo'yicha Biznes boshqaruvi magistri (Master of Business Administration – MBA in Energy Management)

Ko'rsatmalarda qayd etilishicha, sun'iy intellekt va raqamli savodxonlik – bu talabalarga bo'lajak mutaxassislar sifatida o'z tegishli sohalarida hamda fuqaro va iste'molchilar sifatida umr davomida kerak bo'ladigan asosiy bilim va ko'nikmalardir.

Kolorado tog'-kon institutidan tashqari, AQShning boshqa bir qator yetakchi universitetlari ham neft va gaz sohasi mutaxassislarni tayyorlashda sun'iy intellektni o'quv dasturlariga faol integratsiya qilayotgan bo'lib, quyida ular haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan:

- **Stenford universiteti (Stanford University)** dagi Sun'iy intellekt laboratoriyasi (The Stanford AI Lab) bo'lajak neft va gaz sohasi mutaxassislarning ma'lumotlarga asoslangan qarorlarni qabul qilish bo'yicha ilg'or texnologiyalar asosida ta'lim olishlarini ta'minlash hamda prognoztik texnik xizmat ko'rsatish va jarayonlarni optimallashtirish uchun sun'iy intellektga asoslangan modellarning ishlab chiqilishi maqsadida energetika kompaniyalari bilan hamkorlik qiladi.
- **Ostindagi Texas universiteti (University of Texas at Austin)** "Neft va geotizimlar muhandisligi" dasturida tahsil olayotgan talabalar rezervuarlarni modellashtirish va burg'ulash operatsiyalarini chuqur tushunishlari uchun sun'iy intellektga asoslangan simulyatsiya vositalari va mashinali o'qitish usullaridan (machine learning techniques) foydalanadi.
- **Karnegi-Mellon universiteti (Carnegie Mellon University)** sun'iy intellekt sohasidagi ilg'or tadqiqotlari bilan mashhur bo'lib, u bo'lajak mutaxassislarni uchun sun'iy intellektni energetika sektori muammolarini hal etish, jumladan neft va gazni qazib olish va qayta ishlash operatsiyalarini avtomatlashtirishga tatbiq etishga qaratilgan maxsus kurslarni taklif etadi.
- **Texas A&M universiteti (Texas A&M University)** yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda sun'iy intellekt ilovalarini integratsiya qilish maqsadida (unda sun'iy intellektidan foydalanishda xavfsizlik va sama-



radorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratiladi) yirik neft va gaz sohasi kompaniyalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

- **Massachusetts texnologiya instituti (Massachusetts Institute of Technology)**ning "Energetika sohasidagi tashabbusi" (MIT Energy Initiative) doirasida amalga oshirilayotgan sun'iy intellekt va mashinali o'qitish bo'yicha tadqiqotlar bo'lajak mutaxassislarning neft va gaz sohasida prognoztik analitika va robototexnika dasturlaridan foydalana olishlarini o'rgatadigan sun'iy intellekt asosidagi ta'limning kelajagini shakllantirishga xizmat qiladi.

Rossiya tajribasi

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2019-yil 10-oktabrdagi 490-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha sun'iy intellektni rivojlantirish milliy strategiyasi" oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarish uchun muhim me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan:

- oliy ta'lim muassasalari yordamida sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislar sonini oshirish;
- sun'iy intellektdan foydalana oladigan oliy ma'lumotli mutaxassislar yetishmovchiligining o'rnini qoplash uchun global darajadagi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va rivojlantirish;
- sun'iy intellektni iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning muhim sektorlariga, jumladan oliy ta'lim tizimiga integratsiyalash jarayonini jadallashtirish.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu strategiyada davlat, oliy ta'lim muassasalari va biznes o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish nihoyatda muhim ekani qayd etilgan bo'lib, shu maqsadda sun'iy intellektni joriy etishga qaratilgan ta'lim loyihalarida mamlakatdagi "Sberbank" (hozirgi "Sber") va "Yandex" kabi yirik kompaniyalar faol ishtirok etmoqda.

Bugungi kunda Rossiyadagi oliy ta'lim muassasalari sun'iy intellekt bo'yicha ta'lim dasturlarini faol rivojlantirmoqda. Buni turli tadqiqotlar natijasida tuzilgan sun'iy intellekt bo'yicha eng yaxshi universitetlar reytinglarida ham ko'rish mumkin. Quyidagi 1.3.2-jadvalda "Edurank" rasmiy internet saytida berilgan "Rossiyadagi sun'iy intellekt bo'yicha 100 ta eng yaxshi universitet" reytingidan TOP-5 ta universitet keltirilgan.

2-jadval: 2024-yilda Rossiyadagi sun'iy intellekt bo'yicha 5 ta eng yaxshi universitet

Reyting	Universitet	Yevropa miqyosidagi reyting	Jahon miqyosidagi reyting	Qabul qilish foizi	Tashkil topgan yili
1	Moskva davlat universiteti	114	328	12%	1756
2	Sankt-Peterburg davlat universiteti	204	537	14%	1724
3	"Oliy iqtisodiyot maktabi" Milliy tadqiqot universiteti	224	582	19%	1992
4	ITMO universiteti	317	815	10%	1900
5	Moskva fizika va texnologiya instituti	380	1006	30%	1946

Quyida Rossiya oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarish bo'yicha real misollarni keltirib o'tamiz:

- "Oliy iqtisodiyot maktabi" Milliy tadqiqot universiteti 2024-yilning bahorida ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda tahsil olayotgan 15 nafar talaba uchun diplom ishini yozishda YandexGPT til modelidan foydalanishga ruxsat berdi. Bunda talabalar sun'iy intellektdan foydalanish orqali ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, umumlashtirish va rasmiylashtirish kabi ishlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Moskva shahri pedagogika universitetining Ilmiy kengashi ham talabalar uchun diplom ishlarini yozishda sun'iy intellektga asoslangan generativ vositalardan (bular jumlasiga ChatGPT va uning analoglari kiradi) foydalanishga ruxsat bergan bo'lib, talabalar zimmasiga sun'iy intellekt servislaridan olingan ma'lumotni qayta ko'rib chiqish va uni "yana-da ishonchli manbalar" bilan to'ldirish majburiyati yuklanadi. Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti ham talabalar uchun diplom ishi matnini tayyorlashda sun'iy intellektdan oqilona foydalanishga ruxsat bergan bo'lib, bunday diplom ishlarida "sun'iy intellektdan foydalanish asosida tayyorlangan" degan belgi qo'yilishi shart.
- ITMO universiteti dasturlash ko'nikmalariga ega bo'lmagan talabalar uchun mashinali o'qitish vositalarini o'rgatadi. Shuningdek, universitet o'zining professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari uchun Python dasturlash tili yordamida ma'lumotlarni tahlil qilishni o'rgatadigan kurslarni tashkil etadi.



- Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi xalq xo'jaligi va davlat xizmati akademiyasida 2023–2024-o'quv yilida 750 nafarga yaqin tinglovchi mashinali o'qitish va sun'iy intellektdan foydalanishga qaratilgan kasbiy qayta tayyorlash dasturini tamomladi. Ular Python dasturlash tili asoslarini o'rgandilar hamda ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlarda ma'lumotlarni tahlil qilish uchun chuqur neyro tarmoqlar yoki chuqur o'rganish (deep learning) texnologiyalaridan foydalandilar.

Umuman olganda, "Yandex" va "Oliy iqtisodiyot maktabi" Milliy tadqiqot universiteti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2024-yilda Rossiyadagi oliy ta'lim muassasalarining 83 foizi ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini faol joriy etgan.

Endi Rossiya oliy ta'lim muassasalarida neft va gaz sohasi mutaxassislarini tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarish tajribasi haqida to'xtalib o'tamiz. Biroq an'anaga ko'ra, avvalo mamlakat oliy ta'lim muassasalarida neft va gaz sohasi bo'yicha tayyorlanadigan mutaxassisliklar haqida qisqacha ma'lumot berish maqsadga muvofiq. 1.3.3-jadvalda ushbu ma'lumotlar keltirilgan. Biz jadvallarda ko'rsatilgan ayrim oliy ta'lim muassasalarida neft va gaz sohasi mutaxassislarini tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarish tajribasini real misollar yordamida bayon etamiz:

- I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti soha mutaxassislarini tayyorlashda yetakchi oliy ta'lim muassasasi bo'lib, undagi "Neft va gaz ishi" mutaxassisligi o'quv dasturlari sun'iy intellekt bo'yicha modullarni o'z ichiga oladi. Masalan, "Neft va gaz konlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda mashinali o'qitish" moduli. Universitet "Gazprom neft" va boshqa kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi hamda burg'ulash va qidiruv ishlarini optimallashtirishda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha case-study (amaliy holatlar)lar yaratadi.

3- jadval: Rossiya oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan asosiy neft va gaz sohasi mutaxassisliklari

Mutaxassisliklar		
Yoʻnalishlar	Tavsif	Mutaxassislar tayyorlaydigan OTMLar
Neft va gaz ishi		
Neft qazib olish obyektlarini ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat koʻrsatish	Bu yoʻnalishda neft konlarida ishlash, jumladan skvajinalarni burgʻulash va ekspluatatsiya qilish uchun mutaxassislar tayyorlanadi.	I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, Tyumen sanoat universiteti, Ufa davlat neft texnika universiteti
Gaz va gaz kondensatini qazib olish obyektlari hamda yer osti gaz omborlarini ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat koʻrsatish	Bu yoʻnalishda gaz sanoati, jumladan gazni saqlash texnologiyalari boʻyicha mutaxassislar tayyorlashga eʼtibor qaratiladi.	
Neft va gaz skvajinalarini burgʻulash texnologiyalari	Bu yoʻnalishda talabalar burgʻulash usullari, jumladan dengizda burgʻulash usullarini oʻrganadilar.	
Neft va gaz quvurlari hamda neft bazalarini loyihalashtirish va ekspluatatsiya qilish	Bu yoʻnalishda talabalar uglevodorodlarni transport qilish tizimlari bilan ishlashni oʻrganadilar.	
Neft va gaz konlari geologiyasi va qidiruvi		
Neft va gaz geologiyasi	Bu yoʻnalishda talabalar uglevodorodlarni izlash uchun yer qobigʻi tuzilishini oʻrganadilar.	Sergo Orjonikidze nomidagi Rossiya davlat geologiya-qidiruv universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti
Qidiruvning geofizik usullari	Bu yoʻnalishda talabalar zaxiralarni baholash texnologiyalarini oʻrganadilar.	
Kimyoviy texnologiya va neft kimyosi		
Neft va gazni qayta ishlash	Bu yoʻnalishda talabalar yoqilgʻi, moylash materiallari va kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarini oʻrganadilar.	Sankt-Peterburg davlat texnologiya instituti, Qozon milliy tadqiqot texnologik universiteti, Ufa davlat neft texnika universiteti
Neft kimyosi	Bu yoʻnalishda talabalar uglevodorodlar asosida sintetik materiallar yaratishni oʻrganadilar.	
Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish		
Neft va gaz tarmogʻida avtomatlashtirish	Bu yoʻnalishda talabalar neft va gazni qazib olish va qayta ishlashni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va ularga xizmat koʻrsatishni oʻrganadilar.	Milliy tadqiqot Tomsk politexnika universiteti, Samara davlat texnika universiteti



Ekologiya va xavfsizlik		
Neft va gazni ishlab chiqarishda ekologiya	Bu yoʻnalishda talabalar neft va gazni ishlab chiqarishning atrof-muhitga taʼsirini minimallashtirishni oʻrganadilar.	Uxta davlat texnika universiteti, Janubiy Rossiya davlat politexnika universiteti
Texnosfera xavfsizligi	Bu yoʻnalishda talabalar ishlab chiqarish obyektlarida xavfsizlikni taʼminlashni oʻrganadilar.	
Neft va gaz tarmogʻida iqtisodiyot va boshqaruv		
Neft va gaz majmuasi korxonalarining iqtisodiyoti	Bu yoʻnalishda talabalar neft va gaz majmuasi korxonalarining moliyasi va loyihalarini boshqarishni oʻrganadilar.	“Oliy iqtisodiyot maktabi” Milliy tadqiqot universiteti, I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti
Neft va gaz biznesida menejment	Bu yoʻnalishda talabalar neft va gaz majmuasi korxonalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishni oʻrganadilar.	
Konchilik hamda neft va gazni qazib olishning fizikaviy jarayonlari		
Konchilik hamda neft va gazni qazib olishning fizikaviy jarayonlari	Bu yoʻnalishda talabalar neft va gazni qazib olish va qayta ishlashning fizikaviy hamda kimyoviy jihatlarini oʻrganadilar.	Milliy tadqiqot texnologik universiteti “MISiS”

Universitet talabalari seysmik ma'lumotlarni sharhlash va talqin qilish uchun neyron tarmoqlardan qanday foydalanishni o'rganadilar.

- Tyumen sanoat universiteti ko'plab neft va gaz korxonalarini o'zida mujassam etgan G'arbiy Sibir mintaqasidagi yetakchi universitet bo'lib, undagi "Neft va gaz ishi" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun o'qitiladigan "Amaliy geologiya, konchilik, neft va gaz ishi hamda geodeziya" nomli asosiy fan dasturiga "Tog' jinslarini kompyuter texnologiyalari orqali tahlil qilish" va "Sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv texnologiyalari" kabi bo'limlar kiritilgan. Ushbu mutaxassislik bo'yicha amaliy mashg'ulotlar konlarning "raqamli egizaklari"dan foydalanadigan simulyatorlarda o'tkaziladi.
- Ufa davlat neft texnika universiteti asosan neft kimyosi va uni qayta ishlash bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasasi bo'lib, undagi "Kimyoviy texnologiyalar va neft kimyosi" mutaxassisligi bo'yicha o'qitiladigan fanlarda neftni qayta ishlash jarayonlarini modellashtirish (masalan, chuqur o'rganish algoritmlari yordamida mahsulotlarning ishlab chiqarilishini prognoz qilish) uchun sun'iy intellektidan foydalaniladi. Universitetning "Bashneft" kompaniyasi bilan yaqin hamkorlik qilishi o'qitishda sun'iy intellektidan foydalanish uchun zarur bo'lgan real ma'lumotlarni olish imkonini ta'minlaydi.

Umuman olganda, bu kabi real misollarni yana ko'plab keltirish mumkin bo'lib, ular shundan dalolat beradiki, Rossiya Federatsiyasining oliy ta'lim muassasalarida neft va gaz sohasi mutaxassislarini tayyorlashda sun'iy intellektidan foydalanishni boshqarishga muhim e'tibor qaratilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimiga joriy etilishi nafaqat o'qitish jarayonini modernizatsiya qiladi, balki kelajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Xususan, AQSh va Rossiya tajribalarida ko'ringanidek, neft va gaz sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashda sun'iy intellektidan foydalanish jarayonlari modellashtirish, burg'ulash ishlari xavfsizligini baholash, konlarning raqamli egizaklarini yaratish, prognozlash va boshqaruvni optimallashtirish kabi ko'plab yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash va bozor talablariga mos malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Sun'iy intellektidan foydalanishni boshqarish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, texnologiya-yani samarali joriy etish uchun me'yoriy-huquqiy asoslar, malakali trenerlar, yangilangan o'quv dasturlari va universitet-sanoat hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda axloqiy me'yorlarga rioya qilish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va talabalarning raqamli savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish talab etiladi.

Mazkur natijalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellektga oid maxsus modullarni joriy etish, professor-o'qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, neft va gaz sohasi korxonalari bilan qo'shma loyihalar doirasida real ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish hamda o'quv jarayoniga raqamli egizaklar, simulyatorlar va mashinali o'qitish vositalarini bosqichma-bosqich tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Power of AI in Training and Development. 05.01.2024. www.td.org
2. Sophie Nguyen, Rachel Fishman & Olivia Cheche. Varying Degrees 2024: New America's Eighth Annual Survey on Higher Education. URL: <https://www.newamerica.org/education-policy/reports/varying-degrees-2024/> (Last updated: 30.07.2024).
3. Olivia Sawyer. Americans Are Skeptical About AI Use in Higher Education. 12.12.2024. www.newamerica.org
4. Joe White & Serena Cesareo. The Global AI Index. URL: <https://www.tortoisemedia.com/intelligence/global-ai#rankings> (Published: 19.09.2024).
5. Guidelines for Using Generative Artificial Intelligence. URL: <https://www.mines.edu/academic-affairs/genai/> (Date of access: 04.12.2024).
6. Stanford AI Lab. URL: <https://ai.stanford.edu/> (Date of access: 20.11.2024).
7. AI at CMU. URL: <https://ai.cmu.edu> (Date of access: 05.10.2024).
8. Oil and Gas Research Partnership Propels International Initiatives. URL: https://energy.tamu.edu/news_item/oil-and-gas-research-partnership-propels-international-initiatives/ (Published: 29.03.2024).
9. Linking science, innovation, and policy to transform the world's energy systems. URL: <https://energy.mit.edu/> (Date of access: 12.10.2024).
10. Best universities for Artificial Intelligence (AI) in Russia. URL: <https://edurank.org/cs/ai/ru/> (Updated: 29.02.2024).
11. Aleksey Shpilman. Zachem iskusstvennyy intellekt neftyanikam i skol'ko rabochikh mest on mozhet predlozhit' lyudyam. URL: <https://e-plus.media/people/zachem-iskusstvennyj-intellekt-neftyanikam-i-skolko-rabochih-mest-on-mozhet-predlozhit-lyudyam/?ysclid=m6xvsm151155879230> (Published: 23.10.2023).
12. Kira Gordeeva. Nefti nuzhny neftyaniki. 10.09.2023. www.vedomosti.ru
13. Berdiev X. Sun'iy intellekt va uning neft va gaz sohasidagi tutgan o'rni. 01.11.2022. www.teletype.in
14. Nazokat Abduqunduzova. Sun'iy intellekt – texnologik rivojlanish asosi. URL: <https://yuz.uz/news/suniy-intellekt-texnologik-rivojlanish-asosi> (Chop etilgan vaqti: 05.11.2021).
15. Bekzod Zokirov. Kelajak texnologiyalari uchun kurash: nega Xitoy va Rossiya sun'iy intellektni rivojlantirishdan manfaatdor? URL: <https://www.uzanalytics.com/siyosat/9463/> (Chop etilgan vaqti: 30.06.2021).
16. Anastasiya Zinchenko. Neftegazovye vuzy Rossii. URL: <https://propostuplenie.ru/article/neftegazovye-vuzy-rossii> (Yangilangan: 10.07.2020).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.